

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Ertapishar piyozni “Bahoroy” navini urug‘chiligini tashkil etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - piyozni ertapishar, hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan “Bahoroy” navining original, elita va I-reproduksiya urug‘lari tayyorlanadi. - ertapishar piyoz navini biokimyoviy tarkibi to‘liq laboratoriya sharoitida tahlil qilinadi; - ertapishar piyoz navini birlamchi urug‘chiligini tashkil etishda iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi; - piyozning bozorbop, serhosil, kasallikka chidamli istiqbolli navining urug‘lari joriy qilinadi; - ertapishar piyoz navini yetishtirish orqali sabzavot mahsulotlarining assortimentini oshirishga erishiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi